

TURKIYA TASHQI SIYOSATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mirzatillayeva Sevinch Baxrom qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Xalqaro munosabatlar yo'nalishi 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Turkiya Respublikasining zamonaviy tashqi siyosati, uning shakllanishi va amaldagi yo'nalishlari yoritib beriladi. Turkiya tashqi siyosatiga ta'sir ko'rsatib kelayotgan geosiyosiy joylashuv, tarixiy tajriba hamda ichki siyosiy jarayonlarning o'zaro bog'liqligi izchil bayon etiladi. Ayniqsa, Adolat va Taraqqiyot Partiyasi (ATP) hokimiyati davrida tashqi siyosatda kuzatilgan o'zgarishlar, ko'p yo'nalishli diplomatiya, pragmatik yondashuv hamda turkiy dunyo g'oyasining siyosiy amaliyotdagi o'rni alohida e'tiborga olinadi. Turkiyaning G'arb davlatlari bilan an'anaviy hamkorligi bilan bir qatorda, Yaqin Sharq, Kavkaz va boshqa mintaqalarda olib borayotgan faol siyosati orqali mintaqaviy ta'sir doirasini kengaytirishga intilishi ochib beriladi. Shu bilan birga, zamonaviy tashqi siyosat doirasida yuzaga kelayotgan muammolar, manfaatlar muvozanati va strategik rejalar masalasiga ham to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Arab bahori, ko'p vektorli tashqi siyosat, neousmoniylik, strategik chuqurlik, panturkizm, strategik muvozanat, yumshoq kuch, Turk modeli.

DISTINCTIVE FEATURES OF MODERN TURKISH FOREIGN POLICY

ABSTRACT

The article provides a comprehensive analysis of the contemporary foreign policy of the Republic of Turkey, its formation, and its current strategic directions. It consistently examines the interconnection between Turkey's geopolitical location, historical experience, and domestic political processes, which have significantly shaped its foreign policy behavior. Particular attention is paid to the transformations observed during the rule of the Justice and Development Party (ATP), including the adoption of a multi-directional diplomatic approach, pragmatic policy-making, and the role of neo-Ottomanism in political practice. The article highlights Turkey's efforts to expand its regional influence not only through its traditional cooperation with Western countries but also through an active foreign policy in the Middle East, the Caucasus, and other regions. Additionally, it addresses the challenges emerging

within the framework of contemporary foreign policy, as well as issues related to the balance of interests and strategic decision-making.

Keywords: *“the Arab Spring”, “multidirectional diplomacy”, “neoottomanism”, the doctrine of “strategic depth”, “Pan-Turkism”, strategic balance, “soft power”, “the Turkish model”.*

ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ЧЕРТЫ СОВРЕМЕННОЙ ТУРЕЦКОЙ ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье всесторонне рассматривается современная внешняя политика Турецкой Республики, этапы её формирования и основные направления реализации. Последовательно раскрывается взаимосвязь геополитического положения Турции, её исторического опыта и внутренних политических процессов, оказывающих существенное влияние на внешнеполитический курс государства. Особое внимание уделяется изменениям, произошедшим во внешней политике в период пребывания у власти Партии справедливости и развития (АТР), включая развитие многовекторной дипломатии, прагматичный подход и место идеи неоосманизма в политической практике. В статье показано стремление Турции расширить сферу своего регионального влияния как через традиционное сотрудничество с западными странами, так и посредством активной политики на Ближнем Востоке, в Кавказском регионе и других направлениях. Наряду с этим рассматриваются актуальные проблемы современной внешней политики, вопросы баланса интересов и стратегического выбора, политика мягкой силы.

Ключевые слова: *“Арабская весна”, “многовекторная дипломатия”, “неоосманизм”, стратегической глубины, “пантюркизм”, стратегический баланс, “мягкая сила”, “турецкая модель”.*

KIRISH

Turkiya hududi tarix davomida Yevropa, Osiyo va Afrika qit'alarining kesishgan nuqtasida joylashgan bo'lib, bu holat mamlakat uchun muhim geosiyosiy ahamiyat kasb etgan. 1071-yilda Manzikert jangidan so'ng turklar Anadolu hududlariga kelishadi va bu hududda yirik imperiya barpo etishadi. Saljuqiylar va Usmonli imperiyasi davrida Anadolu mintaqasi nafaqat harbiy va siyosiy, balki iqtisodiy va madaniy markazlardan biriga aylangan. XX asr boshlarida Usmonli imperiyasining parchalanishi va birinchi jahon urushidan keyingi siyosiy jarayonlar

natijasida Anadolu hududida milliy ozodlik harakati boshlandi. Mustafu Kamol Otaturk rahbarligida olib borilgan bu kurash 1923-yilda Turkiya Respublikasining tashkil topishi bilan yakunlandi.

“Lozanna shartnomasi”¹ orqali yangi davlatning suvereniteti va hududiy yaxlitligi xalqaro miqyosda tan olindi. Bugungi kun zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi keskin o‘zgarishlar, geosiyosiy raqobatning kuchayishi va mintaqaviy siyosatning faollashuvi bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda ayrim davlatlar nafaqat o‘z hududi doirasida, balki kengroq mintaqalarda ham faol tashqi siyosat olib borishga intilmoqda. Shunday davlatlardan biri Turkiya Respublikasi bo‘lib, u so‘nggi o‘n yilliklarda xalqaro maydonda tobora ko‘proq e‘tiborni tortmoqda. Mamlakatning geografik joylashuvi, bo‘g‘ozlarga egaligi uni siyosat maydonidagi ahamiyatini oshirmoqda. XXI asr boshidan boshlab dengiz bilan o‘ralganligi hamda tranzit hudud sifatidagi ro‘li uning mintaqaviy va global siyosatdagi, ayniqsa Adolat va Taraqqiyot Partiyasi (ATP) hokimiyat davrida Turkiya tashqi siyosatida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Mamlakat o‘zini faqat G‘arbdagi ittifoqchilar bilan cheklab qo‘ymasdan, Yaqin Sharq, Kavkaz, Markaziy Osiyo va Afrika mintaqalarida ham faol tashqi siyosat yurita boshladi. Bu jarayonda diplomatik vositalar bilan bir qatorda iqtisodiy hamkorlik, madaniy aloqalar va xavfsizlik masalalari muhim ahamiyat kasb etdi. Turkiya bugungi kunda mintaqaviy kuch sifatida shakllanib borar ekan, uning tashqi siyosiy qarorlari nafaqat ichki manfaatlar, balki qo‘shni mintaqalardagi siyosiy barqarorlik va xalqaro munosabatlarga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

ASOSIY QISM

Turkiya tashqi siyosatining shakllanishida geografik va geosiyosiy omil eng hal qiluvchi va doimiy ta’sir ko‘rsatib kelayotgan omillardan biri hisoblanadi. Davlatning joylashuvi, tabiiy chegaralari va atrofidagi mintaqalarning beqarorligi Turkiyani tarixan ham, bugungi kunda ham faol va ko‘p yo‘nalishli tashqi siyosat yuritishga majbur etib kelgan. Mamlakatning muhim geosiyosiy joylashuvi unga bir vaqtning o‘zida Yevropa va Osiyoni bog‘lash imkonini berib, Bolqon, Kavkaz, Yaqin Sharq va Qora dengiz mintaqalari kesishgan nuqtada joylashgan. Bunday joylashuv Turkiyaga strategik ustunlik bergani kabi, tashqi siyosatda mas’uliyatni ham yuklaydi. Chunki bu hududlar tarixan katta davlatlar manfaatlarini to‘qnash keladigan makon bo‘lib kelgan. Turkiya hududi uchta muhim dengiz – Qora dengiz, Marmar dengizi va O‘rta yer dengizi bilan tutashgan. Ayniqsa, Bosfor va Dardanel bo‘g‘ozlari global dengiz savdosi va harbiy strategiya nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega. Ushbu bo‘g‘ozlar orqali Qora dengizga chiqish imkoniga ega bo‘lgan davlatlar manfaatlarini

¹ <https://www.britannica.com/event/Treaty-of-Lausanne-1923>

kesishadi. Shu sababli Turkiya bo'g'ozlar masalasida xalqaro huquqqa tayangan holda muvozanatli siyosat yuritishga majbur bo'lib kelmoqda. Birinchi jahon urushidan keyin Antanta ittifoqi davlatlari Turkiyaga 1936-yildagi Montro' konvensiyasi orqali Qora dengiz va O'rta Yer dengizini bog'laydigan strategik bo'g'ozlarni to'liq nazorat qilish huquqini berdi².

Geografik joylashuv Turkiyaning xavfsizlik muammolarini ham murakkablashtiradi. Davlat sakkizdan ortiq mamlakat bilan chegaradosh bo'lib, ularning aksariyati siyosiy beqaror yoki mojaro hududlariga yaqin joylashgan. Yaqin Sharqdagi urushlar, Suriyadagi inqiroz, Iroqdagi beqarorlik, Kavkazdagi mojarolar Turkiya tashqi siyosatini bevosita shakllantiruvchi omilga aylangan. Shu sababli Anqara tashqi siyosatda faqat diplomatik vositlar bilan cheklanmasdan, balki harbiy va xavfsizlik choralarini ham qo'llaydi.

Qolaversa Turkiya energetiya resuslari oridori sifatida ham muhim joylashuvga ega mamlakat. Kaspiy mintaqasi, Rossiya va Yaqin Sharqdan Yevropaga yo'naltirilgan neft va gaz quvurlari Turkiya hududi orqali o'tadi. Bu holat Turkiyani tranzit davlat sifatida strategik ahamiyatga ega o'yinchiga aylantiradi. Energetika xavfsizligi masalasi Turkiya tashqi siyosatida Yevropa Ittifoqi, Rossiya, Ozarbayjon va Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarni rivojlantirishga turtki bo'lmoqda. Bu geosiyosiy omil Turkiyaning tashqi siyosatida muvozanat siyosatini shakllantirishga ham olib keldi. Bir tomondan, Turkiya NATO a'zosi sifatida G'arb tizimining bir qismi bo'lib qolmoqda, ikkinchi tomondan esa Rossiya, Eron, Xitoy va mintaqaviy davlatlar bilan ham yaqin aloqalarni saqlab kelmoqda. Bu holat Turkiyaning „ko'p vektorli“ tashqi siyosat olib borishiga sabab bo'ladi³.

Tashqi siyosatda o'zgarishlarga sabab bo'lgan omillardan biri bu ATP ya'ni Adolat va taraqqiyot partiyasining hokimiyatga kelishi bilan belgilanadi. Bu partiya Turkiyada 2002-yil 3-noyabrda bo'lib o'tgan parlament saylovlari natijasida hokimiyatga keladi. Bu jarayon birgina saylov g'alabasi emas, balki 1990-yillar oxiri va 2000-yillar boshida Turkiyada yuzaga kelgan chuqur siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy inqirozlarning mantiqiy natijasi edi. 2011-yil fevral oyida Erdo'g'on Misr rahbari Husni Muborakni "xalq chaqiriqlari va ularning eng insoniy talablarini" inobatga olishga chaqirdi, keyinchalik, kutilmaganda Turkiyani "Arab bahori"dan foydalanib qolishi kerakligiga urg'u berdi. Bu fojiali bayonot edi. Erdo'g'on Turkiyaning o'sha paytgacha Arab dunyosida erishgan barcha siyosiy va iqtisodiy yutuqlarini mohiyatan

² J.M. Hakov, The Great States, Turkey and Issue Concerning the New Regime of the Straits during the First Years of World War Two. Archiv Orientalní 54 1986. –P. 47–60.

³ Pinar B. "Only Strong States Can Survive in Turkey's Geography": The uses of "geopolitical truths" in Turkey. – Political Geography, 2007. – P. 17.

xafv ostiga qo'ydi⁴. Darhaqiqat, uch yil o'tgach, Turkiya mintaqada butunlay yakkalanib qolgan va qo'shni Suriyada davom etayotgan fuqarolar urushiga chuqur aralashib qolganini his qildi.

ATP Partiyasi avvalgi islomiy yo'nalishdagi Refah va Fazilat partiyalaridan farqli ravishda: o'zini "konservativ-demokratik" partiya sifatida taqdim etdi; dunyoviylikka qarshi chiqmasligini ta'kidladi; bozor iqtisodiyoti, Yevropa Ittifoqiga integratsiya, demokratiya va islohotlarni qo'llab-quvvatlashini bildirdi.

Bu yondashuv ATPga keng ijtimoiy qatlamlar – dindorlar, o'rta sinf, tadbirkorlar va hatto ba'zi liberal doiralarning qo'llovini olish imkonini berdi. 2002-yilgi saylovlarda ATP 34% ovoz oldi. ATPning hokimiyatga kelishi Turkiya siyosiy tarixida burilish nuqtasi bo'ldi. 2002-yildan boshlab mamlakatda siyosiy barqarorlik kuchaydi, tashqi siyosatda faolroq va ko'p yo'nalishli yondashuv shakllandi hamda Turkiya ichki va tashqi siyosatida yangi davr boshlandi. Sovuq urush davrida Turkiya tashqi siyosati asosan G'arbga yo'naltirilgan, ehtiyotkor va xavfsizlikka asoslangan bo'lsa, ATP davrida u faol, ko'p yo'nalishli va tashabbuskor xarakter kasb eta boshladi.

Konservatorlar "yangiusmoniylik" g'oyasini himoya qilishadi. Bu yo'l tarafdorlarida o'zlarining an'anaviy qarashlari, ya'ni "usmoniychilik", bir vaqtlar 3 qit'ada hukmron bo'lgan Usmonli Turk imperiyasini qayta tiklash g'oyasi yotadi, bundan tashqari ular "turkkiylik" g'oyasi ya'ni Turkiy davlatlarni birlashtirish kabi ambitsiyalarga ham ega. Yangiusmoniylik zamonaviy Turkiya tashqi siyosatini talqin etishda keng qo'llaniladigan konseptual tushuncha bo'lib, u Turkiyaning Usmonli imperiyasi merosiga tayanib, mintaqaviy va global miqyosda o'z ta'sirini kengaytirishga qaratilgan siyosiy-mafkuraviy yo'nalishni anglatadi⁵. Ushbu atama asosan g'arbiy tadqiqotchilar tomonidan muomalaga kiritilgan bo'lib, Turkiya siyosatidagi 1980-yillardan keyingi transformatsiyalarni izohlashga xizmat qiladi. Neousmonizm an'anaviy imperiyani tiklashga qaratilgan to'g'ridan-to'g'ri siyosat emas, balki tarixiy xotira, madaniy yaqinlik, diniy omil va iqtisodiy aloqalar orqali "yumshoq kuch"dan foydalanish strategiyasiga asoslanadi⁶. Yangiusmoniylikning asosiy g'oyasi shundan iboratki, Turkiya o'zining tarixiy, madaniy va sivilizatsion merosidan foydalanib, Bolqon, Yaqin Sharq, Kavkaz va Markaziy Osiyo kabi hududlarda tabiiy yetakchi rolini tiklashi mumkin. Bu yondashuvda Islom demokratik taraqqiyotga to'siq emas, balki ijtimoiy-siyosiy modernizatsiyani qo'llab-quvvatlovchi omil sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan neousmonizm Turkiyaning

⁴ <https://www.thecairoreview.com/essays/turkeys-pan-islamist-foreign-policy/>

⁵ Alexander Sh. "New Ottomanism" as a guiding foreign policy doctrine for modern Turkey. – International Relations and Foreign Policy, 2016. – P. 47-49.

⁶ Tarik O. Soft Power in Turkish foreign policy. – Academia, 2007. – P. 81-97.

zamonaviy tashqi siyosatida identitetga asoslangan pragmatik yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi. Yangiusmoniylik Suriya, Iroq va umuman Yaqin Sharqdagi hozirgi voqealarni talqin qilishda foydali tushuncha bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, ba‘zi omillar borki, bu Turkiyaning yetakchilikka bo‘lgan da‘vosiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Masalan, garchi Turkiya iqtisodiy va harbiy salohiyatga ega bo‘lishiga qaramay, mintaqaviy muammolarni o‘zi mustaqil hal qila olmaydi. Turkiya Yaqin Sharqda bir necha harbiy operatsiyalar o‘tkazganiga qaramay, ular muvaffaqiyatli yakunlangan deyish qiyin. Bundan tashqari mamlakat NATOga a‘zo (AQShdan keyin NATOga eng ko‘p qo‘shin kiritgan ikkinchi mamlakat) va necha yillardan beri YIga kirishga harakat qiladi. Aynan shu omil, hozirgi kunda Yaqin sharq mintaqasida tarqoq bo‘lgan arablarni birlashtirishga xalal beradi. Birgina misol, 2022-yilning 18-aprel kuni erta tongda Turk Qurolli Kuchlari (TSK) Shimoliy Iroqda "Claw-Lock"⁷ deb nomlangan harbiy operatsiyani boshladi. Ayni vaqtda Turkiya Suriyadagi harbiy harakatlarini kuchaytirdi. Bundan tashqari, 23-may kuni Prezident Toyyib Erdo‘g‘on, Turkiya tez orada Suriyada ham yangi harbiy operatsiya boshlashini ma‘lum qildi. Bu harakatlar Turkiyaning Kurdiston Ishchilar Partiyasiga (KIP) qarshi hududni nazorat qilishga asoslangan yangi harbiy strategiyasini aks ettiradi. Hozircha, dastlab bu yangi yondashuv harbiy muvaffaqiyat keltirdi. Biroq, aynan harbiy muvaffaqiyat kurd muammosini faqat xafvsizlik va harbiy yechimlar nuqtai nazaridan hal qilish va muammoning uzoq muddatli siyosiy yechimini istisno qilish tendensiyasini kuchaytirmoqda. Bu orada Yevropa esa muammoning siyosiy jihatlarini ham ko‘rib chiqadigan yechim izlashga qaratilgan sa‘y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlashda davom etishi kerak bo‘ladi⁸.

Taniqli Britaniyalik jurnalist, yozuvchi, Turkiya bo‘yicha mutaxassis Devid Barchard va uning izdoshlari doimo neousmonizmni aniq dasturiy doktrina emas, balki Turkiya real siyosatining aks ettirilishi sifatida ko‘rish lozimligini ta‘kidlab kelganlar. Aynan shu jihat uni turk va usmonli mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan boshqa siyosiy nazariyalardan ajratib turadi. Bu jarayonda Ahmet Davuto‘g‘luning “Strategik chuqurlik” asari muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Unda Turkiyaning Usmonli merosi unga alohida geosiyosiy mas‘uliyat yuklashi va tarixiy ildizlarga qaytish yangi imkoniyatlar ochishini ta‘kidlaydi.⁹

Ahmet Davuto‘g‘lu Turkiyaning eng mashhur siyosatchilaridan bo‘lib uning “Strategik chuqurlik” doktrinasini Turkiya tashqi siyosatida yangi nazariy paradigmani shakllantirdi. Ushbu doktrina asosan Davuto‘g‘luning 2001-yilda chop etilgan

⁷ <https://www.dailysabah.com/politics/war-on-terror/operation-claw-lock-targets-center-of-terror-nests-in-n-iraq>

⁸ https://www.swp-berlin.org/10.18449/2022C37/Salim_Cevik

Turkey’s Military Operations in Syria and Iraq

⁹ Wu Fei. Communication and Public Diplomacy. – David Publishing Company, 2018. – 169.

“Strategik chuqurlik: Turkiyaning xalqaro munosabatlardagi o‘rni” nomli asariga tayanadi. Unda muallif Turkiyaning xalqaro tizimdagi o‘rnini an’anaviy “chekka davlat” (periferik davlat) tushunchasidan chiqarib, uni “markaziy davlat” sifatida qayta talqin qiladi. Davuto‘g‘luga ko‘ra, davlatlarning xalqaro siyosatdagi qudrati faqat harbiy yoki iqtisodiy imkoniyatlar bilan belgilanmaydi. Balki geografik joylashuv, tarixiy meros, madaniy identitet va strategik muhit ham muhim rol o‘ynaydi. Aynan shu omillar yig‘indisi “strategik chuqurlik” tushunchasini shakllantiradi. Turkiya uch qit’a — Yevropa, Osiyo va Afrika tutashgan hududda joylashgani, Usmoniylar imperiyasi merosiga egaligi hamda islom va g‘arb sivilizatsiyalari o‘rtasidagi aloqadorlik nuqtasida turishi sababli qulay strategik imkoniyatlarga ega davlat sifatida talqin etiladi. Shu sababli Davuto‘g‘lu Turkiyani Bolqon, Kavkaz, Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo va O‘rta Yer dengizi mintaqalarida bir vaqtning o‘zida faol bo‘la oladigan davlat sifatida ko‘radi.

“Qo‘shnilar bilan nol muammo” ushbu tamoyil Turkiya atrofidagi davlatlar bilan mavjud ziddiyatlarni kamaytirish yoki butunlay bartaraf etishga qaratilgan. Davuto‘g‘luning fikricha, Turkiya mintaqaviy qudratga ega bo‘lishi uchun avvalo o‘z qo‘shnilari bilan barqaror va tinch munosabatlar o‘rnatishi zarur edi. Shu maqsadda Suriya, Eron, Iroq, Rossiya, Gretsiya va Bolqon davlatlari bilan aloqalarni yaxshilashga harakat qilindi. Vizalarning bekor qilinishi, savdo hajmining oshishi va diplomatik aloqalarning faollashuvi bu siyosatning amaliy natijalari sifatida namoyon bo‘ldi. Ko‘p yo‘nalishli siyosat - strategik chuqurlik doktrinasini Turkiyaning faqat G‘arbga yo‘naltirilgan tashqi siyosatini tanqid qiladi. Davuto‘g‘luga ko‘ra, Turkiya bir vaqtning o‘zida Yevropa Ittifoqi, AQSh, Rossiya, musulmon dunyosi va Osiyo davlatlari bilan faol aloqalar olib borishi lozim. Bu yondashuv Turkiyaga xalqaro tizimda turli imkoniyatlarni kengaytirish va muvozanatli siyosat yuritish imkonini berdi. Agar Turkiya YI ga a‘zo bo‘lsa, a‘zo mamlakat sifatida u energiyaga boy Kavkaz va Markaziy Osiyo mintaqalari bilan, shuningdek, “Arab bahori” dan so‘ng qayta shakllangan Yaqin Sharq mamlakatlari bilan Yevropa aloqalarini yaxshilashi, rivojlantirishi va kengaytirishi mumkin. Bugungi kunda Turkiyaning o‘ziga xos geostrategik pozitsiyasi, qolaversa NATOdagi ikkinchi eng ko‘p armiya kiritgan mamlakat sifatida u Yevropa xafvsizligiga hissa qo‘shib keladi. ATP davrida Turkiya ko‘plab mintaqaviy inqirozlarda vositachi sifatida maydonga chiqdi. Isroil–Suriya muzokaralari, Eron yadroviy masalasi, Afg‘oniston va Bolqondagi tashabbuslar bunga misol bo‘la oladi. Bu faol diplomatiya orqali Turkiya o‘zini ishonchli va muvozanatli aktor sifatida namoyon etishga intildi.¹⁰

¹⁰ Heper, Metin. Turkey “between East and West”. – UC Berkeley, 2004. – 38.

2002–2010-yillar oralig‘ida strategik chuqurlik doktrinasi Turkiya tashqi siyosatida sezilarli muvaffaqiyatlarga olib keldi. Mintaqaviy ta’sirning ortishi, savdo aloqalarining kengayishi va diplomatik faollik buning dalilidir. Biroq 2011-yildan boshlab, xususan “Arab bahori” jarayonlari ushbu doktrinaning zaif tomonlarini yuzaga chiqardi. Suriyadagi urush, Misrdagi siyosiy o‘zgarishlar va Isroil bilan munosabatlarning yomonlashuvi “nol muammo” siyosatining amalda barqaror emasligini ko‘rsatdi. Natijada Turkiya ayrim qo‘shni davlatlar bilan keskin ziddiyatlarga duch keldi va strategik chuqurlik doktrinasi qayta ko‘rib chiqila boshlandi.

Bugungi xalqaro munosabatlarda davlatlarning ta’siri tobora ko‘proq harbiy kuchdan tashqari boshqa omillar bilan ham belgilanmoqda. Madaniyat, axborot, ta’lim va xalqaro imidj davlatlarning tashqi siyosatdagi imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim vositalarga aylangan. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, Turkiya tashqi siyosatida yumshoq kuchning shakllanishi va bugungi kundagi faol qo‘llanilishi alohida e’tiborga loyiqdir.

“Yumshoq kuch” davlatning boshqa mamlakatlarga majburlashsiz, ya’ni o‘ziga tortish orqali ta’sir ko‘rsatish qobiliyatini anglatadi. Bunda asosiy omil tahdid yoki bosim emas, balki jozibadorlik va ishonchdir. Agar davlatning siyosiy yo‘li, qadriyatlari va xalqaro maydondagi tutumi boshqa aktorlar tomonidan ijobiy qabul qilinsa, u bilan hamkorlik qilish istagi tabiiy ravishda kuchayadi. Shu jihatdan “yumshoq kuch” tashqi siyosatning nisbatan barqaror va uzoq muddatli ta’sir shakli hisoblanadi. Turkiya uzoq vaqt davomida tashqi siyosatda xavfsizlik masalalariga tayangan. Geosiyosiy joylashuv, tarixiy tajriba va Sovuq urush davridagi rol mamlakatni ehtiyotkor va qat’iy tashqi siyosat yuritishga majbur qilgan. Biroq 2000-yillardan boshlab tashqi siyosatda asta-sekin yangi yondashuv shakllandi. Siyosiy va iqtisodiy islohotlar, faol diplomatiya va mintaqaviy ochiqlik Turkiyaning xalqaro imidjini o‘zgartira boshladi. Shu jarayonda “yumshoq kuch” tashqi siyosatning muhim tarkibiy qismiga aylandi.¹¹

Aynan shu davrda “strategik chuqurlik” yondashuvi va neousmonizm bilan bog‘liq qarashlar tashqi siyosiy fikrlashda muhim o‘rin egalladi. “Strategik chuqurlik” yondashuvi Turkiyani faqat chegara bilan cheklanib qolgan davlat emas, balki tarixiy, madaniy va geografik aloqalari keng bo‘lgan mintaqaviy markaz sifatida ko‘rgan bo‘lsa, “neousmonizm” ko‘proq tarixiy va madaniy meros orqali mintaqa bilan aloqalarni mustahkamlashga urg‘u berdi. Har ikkala yondashuvda ham “yumshoq kuch” asosiy vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur jarayonlar fonida “Turk modeli” tushunchasi shakllandi. Bu model Turkiyaning

¹¹ Haqan F. Turkish foreign policy at the turn of the “century of Turkiye”. – Insight Turkey, 2023

o'ziga xos rivojlanish yo'lini ifodalaydi ya'ni dunyoviy davlat tuzumi, bozor iqtisodiyoti va diniy qadriyatlarning jamiyat hayotidagi madaniy o'rni bir-biri bilan uyg'unlashgan. Turkiyaning mustamlakachilik tajribasiga ega emasligi va G'arb bilan aloqalarni uzmasdan mintaqaviy siyosat yurita olishi ushbu modelning jozibadorligini oshirdi. Bugungi kunda Turkiyaning "yumshoq kuch"i, ayniqsa, madaniyat va axborot sohasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Turk televideniyesi, seriallari dunyoning ko'plab mintaqalarida keng tarqalgan. Ushbu seriallar orqali turk jamiyatining kundalik hayoti, oilaviy qadriyatlar, tarixiy xotira va zamonaviy turmush tarzi namoyish etilib, Turkiyaga nisbatan ijobiy tasavvur shakllanmoqda. Bu jarayon davlat siyosatidan tashqarida bo'lsa-da, tashqi siyosat uchun sezilarli "yumshoq kuch" ta'sirini yaratmoqda.¹²

Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar orqali Turkiya global axborot maydonida faol ishtirok etmoqda. Xalqaro auditoriyaga yo'naltirilgan media mahsulotlar Turkiyaning mintaqaviy va global masalalardagi pozitsiyasini tushuntirishga xizmat qilmoqda. Bu esa mamlakatni faqat harbiy yoki siyosiy kuchga ega davlat sifatida emas, balki axborot jihatdan ham faol aktor sifatida ko'rsatmoqda. Ta'lim va madaniy diplomatiya ham Turkiyaning bugungi "yumshoq kuch"ining muhim qismidir. Xorijiy talabalar uchun ta'lim imkoniyatlari, til va madaniyat markazlari, shuningdek gumanitar yordam faoliyati orqali boshqa jamiyatlar bilan uzoq muddatli aloqalar o'rnatilmoqda. Bu aloqalar vaqt o'tishi bilan Turkiyaning mintaqaviy ta'sirini kuchaytiruvchi ijtimoiy va madaniy asosga aylanishi mumkin.

Zamonaviy Turkiya tashqi siyosatida mintaqaviy yo'nalish alohida o'rin tutadi. Mamlakat o'z atrofidagi hududlarni bevosita milliy xavfsizlik va strategik manfaatlar doirasi sifatida qabul qiladi. Shu sababli Turkiya Yaqin Sharq, Kavkaz, Qora dengiz va Bolqon mintaqalarida faol, ba'zan esa qat'iy tashqi siyosat olib bormoqda. Ushbu siyosat diplomatik tashabbuslar, iqtisodiy hamkorlik va zarur hollarda harbiy vositalar uyg'unligida amalga oshirilmoqda.¹³

Yaqin Sharq Turkiya tashqi siyosatining eng murakkab va muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Suriya va Iroqdagi siyosiy beqarorlik, qurolli to'qnashuvlar, terrorizm xavfi hamda qochqinlar muammosi Turkiya xavfsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, Suriya inqirozi Turkiyani faol siyosiy va harbiy choralar ko'rishga majbur qildi. Chegara xavfsizligini ta'minlash, terrorchi guruhlarining oldini olish va qochqinlar oqimini nazorat qilish Turkiya siyosatining asosiy maqsadlariga aylandi. Shu bilan birga, Turkiya Yaqin Sharqda o'zini mintaqaviy ta'sirga ega davlat sifatida namoyon etishga intilib, diplomatik vositalar

¹² Ahmet D. Strategic Depth. – Journal of International Relations Research, 2014. -169-200.

¹³ Alexander M. Turkish Foreign Policy in the Twenty-First Century. – The Begin-Sadat Center for strategic Studies Bar-Ilan University, 2012. – 35.

orqali ham faol ishtirok etmoqda. Falastin masalasi, Isroil bilan murakkab munosabatlar va arab davlatlari bilan hamkorlik ushbu siyosatning muhim jihatlaridan biridir.

Kavkaz mintaqasi Turkiya uchun tarixiy, etnik va strategik ahamiyatga ega. Ayniqsa, Ozarbayjon bilan “bir millat – ikki davlat” tamoyiliga asoslangan yaqin munosabatlar Turkiya tashqi siyosatining muhim ustunlaridan biridir. Turkiyaning Janubiy Kavkazdagi faolligi, jumladan, Ozarbayjon-Armaniston mojarosida tutgan pozitsiyasi mintaqadagi kuchlar muvozanatiga sezilarli ta’sir ko’rsatdi. Bundan tashqari, Turkiya Kavkaz orqali Markaziy Osiyo bilan aloqalarni rivojlantirishga intilib, transport va energetika loyihalarida faol ishtirok etmoqda. Bu esa mintaqaning strategik ahamiyatini yanada oshirmoqda. Qora dengiz Turkiya tashqi siyosatida muvozanat va ehtiyotkorlikni talab qiluvchi hudud hisoblanadi. Turkiya bu hududda bir tomondan NATO majburiyatlarini, ikkinchi tomondan esa Rossiya bilan strategik aloqalarni hisobga olgan holda siyosat yuritmoqda. Montro konvensiyasi doirasida bo’g’ozlarni boshqarish Turkiyaga muhim diplomatik vosita beradi. Bolqon mintaqasida esa Turkiya tarixiy va madaniy aloqalarga tayangan holda “yumshoq kuch” siyosatini faol qo’llamoqda. Ta’lim, madaniyat va iqtisodiy hamkorlik orqali mintaqadagi o’z ta’sirini saqlab qolishga intilmoqda.¹⁴

Turkiyaning Sharq va G’arb o’rtasida muvozanat siyosatini yuritishi tasodifiy yoki faqat zamonaviy siyosiy rahbariyat bilan bog’liq hodisa emas, balki chuqur tarixiy va geosiyosiy omillar bilan belgilanadigan uzluksiz strategik yo’nalishdir. Mazkur siyosatning ildizlari Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrga, hatto undan avvalgi davrlarga borib taqaladi.

Birinchidan, Turkiyaning geosiyosiy joylashuvi uning tashqi siyosatini muvozanatli yuritishga majbur qiladi. Qora dengiz va O’rta Yer dengizini bog’lovchi Bosfor va Dardanel bo’g’ozlari ustidan nazorat, shuningdek, Yevropa, Kavkaz va Yaqin Sharq chorrahasida joylashganligi Turkiyani yirik kuchlar raqobatining markaziga aylantiradi. Sovuq urush davrida bu holat AQSh va Sovet Ittifoqi uchun strategik ahamiyat kasb etgan bo’lsa, XXI asrda ham Rossiya va G’arb davlatlari uchun o’z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Shu sababli Turkiya bir tomonlama tashqi siyosat yuritgan taqdirda, boshqa tomondan siyosiy, harbiy yoki iqtisodiy bosimga duch kelish ehtimoli yuqori bo’ladi.

Ikkinchidan, Turkiya tashqi siyosatida suverenitet masalasi markaziy o’rin tutadi. Birinchi jahon urushidan keyin Usmoniylar imperiyasining parchalanishi va hududiy yo’qotishlar Turkiya siyosiy elitesining tarixiy xotirasida chuqur iz qoldirgan. Ikkinchi jahon urushidan so’ng Sovet Ittifoqining bo’g’ozlar rejimini qayta ko’rib

¹⁴ Kali R. Turkey’s Growing Foreign Policy Ambitions. - Council on Foreign Relations, 2022. – P. 10.

chiqish, Kars va Ardagan viloyatlariga da'volari Anqarani har qanday yirik kuchning siyosiy yoki harbiy nazoratiga tushib qolish xavfidan ogohlantirdi. Shu bois Turkiya tashqi siyosatda muvozanatni suverenitetni saqlash vositasi sifatida ko'radi.¹⁵

Uchinchidan, xavfsizlik va iqtisodiy manfaatlar o'rtasidagi tafovut Turkiyaning muvozanat siyosatini mustahkamlab kelmoqda. Sovuq urush davrida Turkiya harbiy xavfsizlik masalasida AQSh va NATOga tayanishga majbur bo'lgan bo'lsa-da, iqtisodiy rivojlanish masalasida G'arb yordami cheklangan edi. XXI asrda esa Turkiya Rossiya bilan energetika, savdo, turizm va infratuzilma sohalarida faol hamkorlik qilib, iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlashga intildi. Bu holat mamlakatning tashqi siyosatini faqat xavfsizlikka emas, balki iqtisodiy barqarorlikka ham yo'naltirishini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, muvozanat siyosati Turkiya uchun yirik davlatlar bilan muzokarlarda strategik vosita vazifasini bajaradi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, Turkiya AQSh yoki Rossiya tomonidan bosim kuchaygan davrlarda, muqobil tashqi siyosiy yo'nalish mavjudligini namoyish etish orqali o'z imkoniyatlarini kengaytirgan. Sovuq urush yillarida NATOga qabul qilinmaslik ehtimoli fonida Sovet Ittifoqi bilan muzokaralar boshlash haqidagi signallar, XXI asrda esa AQSh bilan kelishmovchiliklar fonida Rossiya bilan yaqinlashuv ana shunday siyosiy savdolashuv mexanizmining namunasidir. Shuningdek, Turkiyaning muvozanat siyosati urushlardan chetda qolish va diplomatik rolni kuchaytirish istagi bilan ham izohlanadi. Ikkinchi jahon urushi davridagi betaraflik siyosati va Rossiya–Ukraina urushida vositachilik qilishga intilish Turkiyaning bevosita harbiy qarama-qarshiliklardan qochishga urinayotganini ko'rsatadi. Bo'g'ozlar masalasida Montro konvensiyasiga qat'iy amal qilinishi ham xalqaro huquq doirasida harakat qilib, muvozanatni saqlashga intilishini tasdiqlaydi.

XULOSA

Ushbu maqolada Turkiya Respublikasining zamonaviy tashqi siyosati tarixiy tajriba, geografik joylashuv va hozirgi xalqaro munosabatlar sharoitida tahlil qilindi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Turkiya tashqi siyosati uzoq yillik tarixiy jarayonlar va milliy manfaatlar asosida shakllanib kelmoqda. Mamlakatning Yevropa, Osiyo va Yaqin Sharq chorrahasida joylashuvi uning tashqi siyosatiga bevosita ta'sir etadi. Bosfor va Dardanel bo'g'ozlari ustidan nazorat Turkiyaga strategik ustunlik beradi. Shu bilan birga, bu holat mamlakatni doimo muvozanatli va ehtiyotkor siyosat yuritishga majbur qiladi. XXI asr boshidan, ayniqsa ATP hokimiyatga kelgach, Turkiya tashqi siyosatida muhim o'zgarishlar yuz berdi. Avval asosan G'arbga yo'naltirilgan siyosat o'rnini ko'p yo'nalishli va faol tashqi siyosat egalladi. Neo-

¹⁵ Ahmet D. Stratejik Derinlik: Türkiye'nin Uluslararası Konumu. – Kure Yayinlari, 2001. – P. 213-215.

usmonizm va “strategik chuqurlik” yondashuvlari Turkiyaning mintaqaviy faolligini kuchaytirdi. „Qo‘shnilar bilan nol muammo” siyosati orqali atrofdagi davlatlar bilan munosabatlarni yaxshilashga harakat qilindi. Dastlab bu yondashuv savdo va diplomatik aloqalarning rivojlanishiga xizmat qildi. Biroq „Arab bahori “ jarayonlari ushbu siyosatning zaif tomonlarini ham namoyon etdi. Maqolada yumshoq kuch siyosatining o‘rni ham alohida yoritildi. Madaniyat, ta’lim va ommaviy axborot vositalari orqali Turkiya ijobiy xalqaro imidj shakllantirdi. Turk OAVsi va media mahsulotlari mamlakatning jozibadorligini oshirdi. Ta’lim va gumanitar loyihalar uzoq muddatli aloqalarni mustahkamladi. Yaqin Sharq, Kavkaz va Qora dengiz mintaqalaridagi xavfsizlik muammolari Turkiya tashqi siyosatining murakkabligini oshirdi. Bu hududlarda Turkiya diplomatik vositalar bilan birga harbiy choralarni ham qo‘llashga majbur bo‘ldi. Bu holat Turkiya tashqi siyosatining pragmatik xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi. Umuman olganda, Turkiyaning Sharq va G‘arb o‘rtasida muvozanat siyosatini yuritishi uning asosiy strategik yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda. Ushbu muvozanat Turkiyaga suverenitetni saqlash va o‘z imkoniyatlarini kengaytirishga yordam bermoqda. Kelajakda ham Turkiya tashqi siyosati ko‘p yo‘nalishli va muvozanatga asoslangan tarzda rivojlanishi kutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alexander M. Turkish Foreign Policy in the Twenty First Century. - The Begin-Sadat Center for Strategic Studies Bar-Ilan University, 2012. – 31.
2. Mesut D, O‘zlem S.D. Turkey's Geopolitics. - Uluslararası Yönetim Akademisi Dergisi, 2022. – 320-339.
3. Haqan F. Turkish foreign policy at the turn of the “century of Türkiye”. – Insight Turkey, 2023
4. Tarik O. Soft Power in Turkish foreign policy. – Academia, 2007. – 81-97.
5. Ahmet D. Stratejik Derinlik: Türkiye’nin Uluslararası Konumu. – Kure Yayinlari, 2001. – 213-215.
6. Alexander M. The Strategic Depth Doctrine of Turkish Foreign Policy. – Academia, 2006. – 945-964.
7. Ahmet D. Strategic Depth. – Journal of International Relations Research, 2014. - 169-200.
8. Alexander Sh. “New Ottomanism” as a guiding foreign policy doctrine for modern Turkey. – International Relations and Foreign Policy, 2016. – 47-49.
9. Tarik O. Soft power in Turkish foreign policy. – Academia, 2007. – 81-97.
10. Stephen L, Ian O. Turkish Foreign Policy in an age of Uncertainty. - RAND, 2003. – 241.

11. Kali R. Turkey's Growing Foreign Policy Ambitions. - Council on Foreign Relations, 2022. – 10.
12. Sadan I, Sinem A. Turkish Foreign Policy. – International Studies Association and Oxford University Press, 2025.
13. Alexander M. Turkish Foreign Policy in the Twenty-First Century. – The Begin-Sadat Center for strategic Studies Bar-Ilan University, 2012. – 35.
14. Kumar N. Strategic Depth Doctrine and Turkish Engagement in West Asia. - Perspectives on Turkey's Multi-Regional Role in the 21st Century, 2015.
15. Karolina W. Turkey forever balances between East and West. – Jagiellonian University in Krakow, 2023. – 239-255.
16. Heper, Metin. Turkey “between East and West”. – UC Berkeley, 2004. – 38.
17. Sibel D, Can A, Mustafa C, Bilgay D, Muhammed H. Terorsuz Turkiye’de Bo’lgesel Guvenlik ve Diplomasi Doktrini. – SETA, 2025.
18. Ahmet D. Stratejik Derinlik. – Turkiye’nin Uluslararası Konumu, 2001. – 597.
19. Pinar B. “Only Strong States Can Survive in Turkey’s Geography”: The uses of “geopolitical truths” in Turkey. – Political Geography, 2007. – 17.
20. Yavuz M. Turkish identity and foreign policy in flux: The rise of Neo-Ottomanism. – Critique: Journal for Critical Studies of the Middle East, 1998.
21. Wu Fei. Communication and Public Diplomacy. – David Publishing Company, 2018. – 169.
22. Ayman S Al-Barasneh. The Reconceptualisation of Turkish Identity: Foreign Policy between Grand Strategy and Pragmatism between 2002 – 2019. – International Journal of Innovation, Creativity and Change, 2020. – 18.